

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./ZIVF8874>
UDC: 347.965(045)(575.1)

ADVOKATLIK TUZILMALARINING HUQUQIY MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodiraliyev Saddam Baxtiyorjon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar
va advokatura kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-5479-5481
e-mail: s.qodiraliyev@tsul.uz

Gulmurodov Firuzbek Olimjon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
ORCID: 0000-0002-1602-2373
e-mail: gulmurodovfiruzbek@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomi ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, bu borada advokatlik byurosi va yuridik maslahatxonaning tarkibiy xususiyatlari, ushbu advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomini takomillashtirish yuzasidan milliy va xorijiy tajriba o'rganildi hamda O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqida takliflar berildi. Shuningdek, advokatlik firmasi va advokatlar hay'atining umumiy, o'xshash hamda o'zaro farqli tomonlari nazariy va huquqiy jihatdan tadqiq etilib, advokatlik firmasi va advokatlar hay'atida advokatlarning huquq va majburiyatlari, bevosita amaliyotda olib borilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra, advokatlik tuzilmasi hisoblangan yuridik maslahatxona faoliyatini qonunchilikda belgilab qo'yilganidek amalda tashkil etish, yuridik maslahatxonaning to'laqonli faoliyat yuritishi uchun moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan samarali ta'minlash tizimini yaratish dolzarb ekanligi ta'kidlandi. Xorijiy davlatlar advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomi milliy advokatlik tuzilmalari bilan qiyosiy jihatdan tahlil etilgan holda mamlakatlarda advokatlik tuzilmalari advokatura institutining ijtimoiy-huquqiy tabiatiga bog'liqligi aniqlandi. O'rganishlarni hisobga olgan holda ushbu institutning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida advokatura institutining nazariy va amaliy asoslarining dolzarbligi ochib berildi. O'zbekiston Respublikasida advokaturaning bugungi kundagi holati, advokatlik tuzilmalari huquqiy maqomining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari belgilab olindi.

Kalit so'zlar: advokatlik tuzilmasi, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlik hay'ati, yuridik maslahatxona.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО СТАТУСА АДВОКАТСКИХ СТРУКТУР

Кодиралиев Саддам Бахтиержон угли,
преподаватель кафедры «Суды,
правоохранительные органы и адвокатура»
Ташкентского государственного юридического университета

Гулмуродов Фирузбек Олимжон угли,
студент факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье правовой статус адвокатских структур анализируется с научно-теоретической и правовой точки зрения, в связи с этим изучены структурные особенности адвокатского бюро и юридической консультации, отечественный и зарубежный опыт совершенствования правового статуса этих адвокатских структур, а также даны предложения по внесению изменений в Закон Республики Узбекистан «Об адвокатуре». Кроме того, теоретически и юридически исследованы общие, сходные и различные стороны адвокатской конторы и коллегии адвокатов, а также права и обязанности адвокатов адвокатской конторы и коллегии адвокатов. По результатам проведенных исследований организации непосредственной деятельности юридической консультации, которая рассматривается на практике и в порядке, установленном законодательством, как адвокатская структура, подчеркнута необходимость срочного создания системы материально-технического и финансового обеспечения полноценной юридической консультации. Сравнивая правовое положение правовых структур зарубежных стран с национальными правовыми конструкциями, было определено, что правовые конструкции в странах зависят от социально-правовой природы правового института. С учетом результатов проведенных исследований в целях совершенствования правовых основ данного института обоснована актуальность изучения теоретических и практических основ института адвокатуры в Республике Узбекистан. Определено современное состояние адвокатуры в Республике Узбекистан, выявлены актуальные вопросы правового положения юридических конструкций и приведены направления их совершенствования.

Ключевые слова: адвокатская структура, адвокатское бюро, адвокатская фирма, адвокатская коллегия, юридическое консультирование.

IMPROVING THE LEGAL STATUS OF ADVOCACY STRUCTURES

Qodiraliyev Saddam Bakhtiyorzhon ugli,
Lecturer, Department of Court, Law
Enforcement Agencies and Advocacy,
Tashkent State University of Law

Gulmurodov Firuzbek Olimzhon ugli,
Student, Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a scientific, theoretical, and legal analysis of the legal status of law firms; examines the features of the structure of the law office and legal advice, national and foreign experience in improving the legal status of these law firms, and offers proposals for making appropriate amendments to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Advocacy". In addition, the general, similar, and mutual differences between a law firm and a bar association, and the rights and obligations of lawyers in a law firm and a bar association have been theoretically and legally investigated. According to the results of studies carried out directly in practice, it was emphasized that it is urgent to organize the activities of the legal consultancy, which is considered to be an advocacy structure, as stipulated in the legislation, and to create a materially, technically and financially effective support system for the full operation of the legal consultancy. A comparative analysis of the legal status of the legal structures of foreign countries with national legal structures revealed the dependence of the legal structures in the countries on the socio-legal nature of the institute of advocacy. In order to improve the legal foundations of this institution, taking into account the studies, the relevance of the theoretical and practical

foundations of the bar institute in the Republic of Uzbekistan was revealed. The current state of advocacy in the Republic of Uzbekistan, current issues of the legal status of advocacy structures, and ways of improvement were determined.

Keywords: *advocacy structure, advocacy bureau, advocacy firm, bar association, legal consultancy.*

Kirish

Advokatura har qanday davlatning eng muhim huquqiy instituti bo'lib, u fuqarolar va ularning birlashmalarining asosiy huquqlarini himoya qiladi [1, 3-b.]. Bugungi kunga kelib, yurisprudensiya tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lgan advokatura institutini zamon ruhiga mos ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Advokatura demokratik davlat huquqiy tizimining eng muhim instituti bo'lib, uning vazifasi davlatdan mustaqil ravishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sifatli himoya qilishdan iborat [2]. Shu bois mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyati institutlaridan biri bo'lgan huquq tizimini isloh qilish, uning jamiyatdagi mavqeyini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-mayda qabul qilingan PF-5441-sonli farmonida mamlakatimizda advokatura institutining holatiga baho berilib, uning mavjud muammolari e'tirof etilgan holda ularni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham advokatura sohasini rivojlantirish hamda uning mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlari belgilangan. Ushbu farmonning 19-maqsadida advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish belgilangan. Bu borada advokatlik institutini takomillashtirishda

tirishda advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomini nazariy va huquqiy jihatdan tahlillar asosida o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda advokatura institutiga doir 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat mavjud. Ularning aksariyatini qonunosti hujjatlari tashkil etadi. Bosh qomusimiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan tashkil qilingan marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qonun ijodkorligi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, to'g'ridan to'g'ri harakatga ega qonunlar qabul qilish zarurligi ta'kidlandi [4].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomi, advokatura institutiga oid milliy qonunchilik va amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar qiyoslash va statistik metodlaridan foydalangan holda o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

Manbalarda huquqiy maqomiga huquq normalari bilan subyektlar holatining belgilanishi, shuningdek, subyektlar huquq va majburiyatlarining majmui sifatida ta'rif berilib, uning tarkibiy elementlariga quyidagilar kiritilgan: huquq subyektliligi; qonun bilan belgilangan huquq va majburiyatlarning mavjud bo'lishi; belgilangan huquqlarning kafo-latlanganligi; majburiyatlarni bajarmaganligi uchun subyekt javobgarligining yuzaga kelishi.

Yuridik adabiyotlarda "maqom" tushunchasi deganda davlat organi, tashkilot, birlashma, mansabdor shaxs, shaxsning normativ-huquqiy hujjatda belgilangan holati tushunilishi bayon etilgan. Mazkur adabiyotlarda maqom tushunchasi bilan yuqorida qayd etilgan subyektlarning ijtimoiy muno-

sabatlar tizimidagi o'rni, ularning huquq va majburiyatlari hamda ularni amalga oshirish xususiyatlari belgilab beriladi, deya ta'riflar keltirilgan [5]. A.T. Toleubekov "maqom" tushunchasi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilgan ekan, bunda maqom amaliyotda qo'llaniladigan faktik maqom va qonun normalarida belgilangan huquqiy maqom shaklida bo'lishi mumkinligini qayd etadi [6, 90-b.].

O'zbekiston Respublikasi advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida belgilangan bo'lib, ular quyidagicha bayon qilingan:

- Advokatlik byurosi;
- Advokatlik firmasi;
- Advokatlar hay'ati;
- Yuridik maslahatxona.

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin [7, 29-b.]. Advokatlik byurolari, shu jumladan, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 4¹-moddasida advokatlik byurosi advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasi ekanligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrda qabul qilingan O'RQ-497-sonli Qonuni asosida "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi yettinchi qismida advokatlik byurolarini ta'sis etgan advokatlar o'z faoliyatini mulk huquqi yoki boshqa qonuniy asosda o'zlariga tegishli bo'lgan turar joylarda amalga oshirishi mumkinligi, bunda advokatga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylar-

ni advokatlik byurosi faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylar toifasiga o'tkazish talab qilinmasligi belgilandi [8]. Keyingi yillarda advokatlik tuzilmasining ushbu shakli keng tarqalmoqda. Masalan, 2020-yil 1-yanvarda 1258 ta, 2021-yil 1-yanvarda 1383 ta, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1559 tani tashkil etgan. Bu esa mamlakatimizda advokatlik byurolari soni yildan-yilga o'sib borayotganini ko'rsatadi. Shu sababdan advokatlik byurosining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay huquqiy muhit va iqtisodiy kafolatlar yaratish davlat oldida turgan hal etilishi lozim bo'lgan muhim masaladir.

Tahlillarga ko'ra, advokatlik byurosini tashkil etib, davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida davlat boji undiriladi. Fikrimizcha, advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda davlat bojiga oid normalarning qonunosti hujjatida, aniqrog'i, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanganligi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun talablariga to'g'ri kelmaydi. Boshqa tomondan esa advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji stavkasining miqdori advokatlik tuzilmalarining jamoaviy shakli bo'lgan advokatlar hay'ati va advokatlar firmasi bilan bir xilda, ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida belgilangan. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun boj Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga undirilgan ekan. Advokatura institutiga oid masalalarni ilmiy jihatdan o'rgangan olimlardan biri Valisher Davlyatov ta'kidlaganidek, o'zini o'zi boshqaruvchi organining asosiy xususiyatlaridan biri – o'zini o'zi moliyalashtirish [9, 84-b.]. MDHga a'zo Rossiya Federatsiyasida advokatlik tuzilmalari advokatlarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi va boj ham tegishincha ularga to'lanadi. Ushbu tajribani

milliy advokatura tizimiga joriy etgan holda to'lanadigan bojlar Advokatlar palatasining sarf-xarajatlarga yo'naltirilishi kerak. Masalan, eng dolzarb masala hisoblangan yuridik maslahatxonalar tashkil etish va uning moddiy-texnik bazasini yaratishga yo'naltirishdir. Advokatlik byurosida bino va inshootlari ta'minoti uchun sarf-xarajatlarning kamligi ijobiy jihati bo'lsa, boshqa tomondan, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga yuridik yordam ko'rsatish davomida uni qabul qilish, unga maslahat va tushuntirishlar berish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo'lmaydi. Bunga qo'shimcha ravishda advokatlik byurosida advokatlik kasbi uchun ishchanlik muhitining juda ham pastligidir. Ya'ni advokatlik byurosida muayyan huquqiy masala bo'yicha o'zaro fikr-mulohaza almashish, o'ziga xos malaka oshirish imkoni mavjud emas [10]. Fikrimizcha, advokatlik byurosida advokatlik faoliyatini olib borishda tajribali advokatlardan maslahatlar olish, ularning kasbiy bilim, malaka va tajribalarini o'rganish imkoniyati deyarli yo'q. V. Davlyatov ta'kidiga ko'ra, advokatlik faoliyatini endi boshlagan advokat yakka o'zi advokaturaning sir-asrorlari va kasbiy qadriyatlariga ega bo'la olmaydi. Advokatura sohasiga endi kirib kelgan, hali yetarli ish tajribasiga ega bo'lmagan advokatning yakka tartibda faoliyat ko'rsatishi kelajakda muayyan qiyinchilik va muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Advokatlik tuzilmalari shakllaridan yana biri – yuridik maslahatxona bo'lib, u "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 4⁴-moddasiga asosan, "Yuridik maslahatxona – advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan advokatlik tuzilmasi". Mazkur advokatlik tuzilmasi advokatlar tomonidan tashkil etilmaydigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan advokatlik tuzilmasining yagona shakli hisoblanadi. Ushbu tuzilma bevosita davlat organlari tomonidan tashkil etilishi uning boshqa advokatlik

tuzilmalaridan farq qiluvchi asosiy belgisidir [11]. Eng e'tiborli tomoni shundaki, hozirgi vaqtgacha mamlakatimizning biron-bir hududida yuridik maslahatxona tashkil etilmagan. Bu esa qonunning ushbu normasi huquqni qo'llash amaliyotida muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatishdek konstitutsiyaviy majburiyat yuklatilgan advokatura instituti vazifalarining bir qismini ayrim davlat organlari yoki jamoat birlashmalarini tashkil etish orqali davlat tomonidan bajarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrda qabul qilingan "Aholiga huquqiy axborotni yetkazish va yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 741-sonli qaroriga asosan, Adliya vazirligi va "Yuksalish" umummilliy harakati takliflari inobatga olinib, "Madad" nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etildi. Uning asosiy vazifalaridan biri sifatida fuqarolarga huquqiy masalalar bo'yicha, shu jumladan, onlayn maslahatlar va tushuntirishlar berish yo'li bilan birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatish belgilandi. Biroq tahlillar mazkur tashkilotning malakali yuridik yordam ko'rsatish imkoniyati cheklanganligi, chunki uning tarkibi professional advokatlardan emas, balki mutaxassis-xodimlardan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Advokatlik firmasi – notijorat tashkilot bo'lmish advokatlik tuzilmasi. U sheriklikka asoslanadi va advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etiladi [12]. Advokatlik firmasi advokatlik faoliyatini amalga oshirishning jamoaviy shakli sanaladi. Advokatlik firmasining ta'sis hujjati uning ta'sischilari tomonidan tasdiqlanuvchi nizomidir. Advokatlik firmasi oddiy yozma shaklda sheriklik shartnomasini tuzish orqali ta'sis etiladi. Sheriklik shartnomasiga ko'ra, advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam

ko'rsatishga o'z kuchlarini birlashtirish majburiyatini oladilar [13, 65-b.].

Advokatlar hay'ati a'zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir. Advokatlar hay'atlari tarkibidagi a'zolar soni 10 tadan kam bo'lmasligi kerak. Advokatlar hay'atining ta'sis hujjatlari uning muassislari tomonidan tuziladigan ta'sis shartnomasi hisoblanadi [14, 100-b.]. Advokatlar hay'ati va advokatlik firmasi advokatlar tomonidan jamoaviy tarzda tashkil qilinadigan advokatlik tuzilmasidir. Ular umumiy va o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Birinchi navbatda, advokatlar hay'ati va advokatlik firmasining umumiy jihatlari ko'rib chiqsak.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, advokatlar hay'ati va advokatlik firmasi advokatlik tuzilmalari o'rtasida jamoaviy yondashuvga asoslanadi. Shuningdek, ularning ustav va ta'sis shartnomasi advokatlar hay'ati va advokatlar firmasining ta'sis hujjatlari hisoblanadi. Shu o'rinda O.V. Pospelovning "sheriklik shartnomasi advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam ko'rsatish jaryonini belgilaydigan hujjat bo'lib, u ta'sis hujjati hisoblanmasligi" haqidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi [15, 113-b.]. Chunki sheriklik shartnomasi ham bir vaqtda ta'sis shartnomasi hisoblanadi. Advokatlik tuzilmasining ushbu shakllari bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Birinchidan, advokatlik firmasi advokat-sheriklardan tashkil topgan bo'lib, ular o'rtasida sheriklik shartnomasi tuziladi. Unga ko'ra advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko'rsatish uchun o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish majburiyatini oladi. Shuningdek, shartnomada boshqaruvchi sherikni saylash tartibi va uning vakolatlari ko'rsatilishi kerak. Ikkinchidan, advokatlar hay'ati va advokatlik firmasini kamida ikki nafardan ortiq advokat ta'sis etadi. Chunonchi, "Advokatura to'g'risida"gi

Qonunning 4-moddasi mazmuni tahlilidan shu narsa anglashiladiki, advokatlik firmasi uchun kamida ikki nafar advokat, advokatlar hay'ati uchun kamida o'n nafar advokat ushbu advokatlik tuzilmalariga a'zo bo'lishlari lozim. Uchinchidan, advokatlik firmasida yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning subyekti tarkibi advokatlar hay'atida kengroq [16, 177-b.]. Xususan, bir tarafda advokatlik firmasi advokati bo'lgan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha aynan bir advokat emas, balki firmaning barcha advokat-sheriklari ishonch bildirgan shaxsning oldida javobgar hisoblanadi. Ishonchnomalarda ishonch bildiruvchi shaxslar va uchinchi shaxslar bilan bitim hamda kelishuvlar tuzayotgan sherikning vakolatlari bo'yicha barcha cheklovlar ko'rsatiladi. Mazkur cheklovlar ishonch bildiruvchi shaxslar va uchinchi shaxslar e'tiboriga yetkaziladi. Sheriklik shartnomasida bevosita belgilangan taqdirda javobgarlik teng bo'lishi mumkin. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda advokatlik byurolari 2371 ta, advokatlik firmalari 557 ta, advokatlik hay'atlari soni esa 91 tani tashkil qilmoqda [17]. Ushbu statistikadan shunisi ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida yuridik maslahatxonalar ham advokatlik tuzilma sifatida belgilab qo'yilishiga qaramasdan, shu vaqtga qadar respublikamizda yuridik maslahatxonalar tashkil qilinmaganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan dolzarb masalalardan biri ham shu hisoblanadi.

Xulosalar

Mamlakatimizda advokatlik byurosi va yuridik maslahatxona faoliyatini tashkil etishning nazariy hamda amaliy masalalari Qonun darajasida aniq hal etilmasa, bu yuqori malakali yuridik yordam ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi. Shu o'rinda "Advokatura to'g'risida"gi qonunda yuridik maslahatxonalar huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqib, uning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqib, qonunda belgi-

lab qo'yilishi va "Madad" nodavlat notijorat tashkilotida qo'llanayotgan amaliyotni takomillashtirgan holda, yuridik maslahatxonalarga tatbiq etib, fuqarolarga yuridik yordam berish amaliyoti taklif qilinadi. Fuqarolarga advokatlik tuzilmasi hisoblangan

yuridik maslahatxonalarda elektron tizim orqali yuridik yordamning faqatgina advokatlar tomonidan berilishi fuqarolarning muammolariga sifatli huquqiy yechim topish va ortiqcha vaqt sarflashlarining oldini oladi.

REFERENCES

1. Smolenskiy M.B. Advokatskaya deyatelnost' i advokatura Rossiyskoy Federatsii (advokatskoye pravo) [Advocacy activity and advocacy of the Russian Federation (advocacy law)]. Rostov-on-Don, Phoenix, 2007, p. 3.
2. Qodiraliyev S. Improving the activity of qualification commissions under the regional administrations of the chamber of advocates of the Republic of Uzbekistan. *Research Jet Journal of Analysis and Inventions*, Tashkent, 2022, no. 12, pp. 59–65.
3. Kovalev N. Voprosy nezavisimosti advokatov i pravo na zashchitu: rekomendatsii po reformirovaniyu zakonodatel'stva Respubliki Uzbekistan v sootvetstvii s mezhdunarodnymi normami i printsipami [Issues of the independence of lawyers and the right to defence: recommendations for reforming the legislation of the Republic of Uzbekistan in accordance with international norms and principles]. UN Office on Drugs and Crime. P. 4.
4. Mirziyoyev Sh. An educated generation is the key to a great future, entrepreneurs – prosperous life, and friendly cooperation is the key to progress. *Narodnoye slovo – Public Speech*, 2018, December 8, no. 253 (7211).
5. Davlyatov V.X. Yuridicheskaya priroda i osobennosti pravovogo statusa advokatskikh formirovaniy [Legal nature and features of the legal status of lawyers]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 1, pp. 188–191.
6. Toleubekov A.T. Konstitutsionno-pravovoy status parlamenta Respubliki Kazakhstan [Constitutional and legal status of the Parliament of the Republic of Kazakhstan]. PhD thesis. Moscow, 2015, 90 p.
7. Nurumov D., Matmurotov A. Advokatura [Advocacy]. Tashkent, 2021, p. 29.
8. Matmurotov A. Analysis of the requirement having work experience in the legal profession for a person applying for the status of an advocate in order to obtain a license for the right to practice law. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, vol. 3 (12), pp. 50–55. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume03Issue12-08/.
9. Davlyatov V.X. Advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o'zini o'zi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalari [Issues of the legal status of advocacy structures and self-governing body in improving the institute of advocacy]. Abstract of the PhD thesis. Tashkent, 2020, 84 p.
10. Kodiraliyev S., Tulaganova G. Rol' advokata v realizatsii prava na zashchitu i kvalifitsirovannuyu yuridicheskuyu pomoshch', ustanovlennogo Konstitutsiei Respubliki Uzbekistan [The role of a lawyer in the realization of the right to protection and qualified legal assistant of the constitutional Republic of Uzbekistan]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 1, spec. iss., pp. 152–156. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-advokata-v-realizatsii-prava-na-zaschitu-i-kvalifitsirovannuyu-yuridicheskuyu-pomosch-ustanovlennogo-konstitutsiei-respubliki/>. DOI:10.24412/2181-919X-2020-1-152-156/.
11. Matmurotov A. An analysis of some of the requirements for obtaining the status of an advocate in foreign countries. *European Scholar Journal*, 2021, no. 2 (11), pp. 133–136. Available at: <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/1514/>.

12. Matmurotov A. Some limitations in the practice of advocacy: national and foreign experience. Innovative Approaches in Modern Science. Proceedings of CVIII International Scientific-Practical Conference "Innovative Approaches in Modern Science, 2021, no. 24 (108). Moscow, Internauka Publ. House. DOI: 10.32743/25878603.2021.24.108.322519/.
13. Nikonov I.G. Atamalar lug'ati [Glossary of terms]. Tashkent, 2019, 65 p.
14. Rustamboyev M.X., To'xtasheva U.A. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati [Advocacy in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2012, 100 p.
15. Pospelov O.V. Formy advokatskikh obrazovaniy v Rossii [Forms of lawyer formations in Russia]. Moscow, Russian Academy of Advocacy, 2008, p. 113.
16. Gavrilov S.N. K voprosu o formirovanii kognitivnoy bazy advokatskoy korporatsii [On the formation of the cognitive base of a lawyer corporation]. *Aktual'nyye problemy rossiyskogo prava – Actual Problems of Russian Law*, 2016, no. 6 (67), pp. 174–183.
17. Legal aid information system. Available at: <https://e-advokat.uz/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.